



**SIRDARYO VILOYATINING**  
**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**  
*(2018 yil yanvar-dekabr)*

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2275,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 145,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati minus 15,8 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2130,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 5,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 209,1 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 %ga ko'paygan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)**



Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo'lgan Guliston shahri (894,2 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (256,7 mlrd.so'm), Sardoba tumani (194,1 mlrd.so'm), Guliston tumani (192,3 mlrd.so'm), ijobjiy tasirini ko'rsatmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)**

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan minus 15,8 % ga kamaydi va 145,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,4 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 2130,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,1 % ga o'sdi. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,6 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi ulishi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'r'a, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulishi 2015 yil 87,6 % ni tashkil qilgan bo'lsa 2018 yilga kelib kichik tadbirkorlikning ulishi 93,6 % ga yetdi. Kichik tadbirkorlika yaratilgan imkoniyatlar o'z natijasini bermoqda.

### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Sardoba (99,7 %), Guliston (99,1 %), Xovos va Oqoltin (99,0%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahrida (11,1 %), Sayxunobod (8,7 %) va Yangiyer shahri (6,6 %) kuzatilgan.

### Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	145,5	84,2	2130,0	105,1
Guliston sh.	98,9	96,5	795,3	117,3
Shirin sh	0,5	12,6	27,0	98,8
<b>Yangiyer sh tumanlar:</b>				
Boyovut	3,9	43,8	112,7	98,4
Guliston	1,7	37,2	190,7	98,9
Mirzaobod	3,8	59,5	156,0	94,2
Oqoltin	0,9	19,8	86,9	96,2
<b>Sardoba</b>	0,6	15,6	193,5	101,6
Sayxunobod	8,0	2,0m	84,4	102,7
<b>Sirdaryo</b>	15,0	93,1	241,6	100,2
Xovos	0,8	17,7	79,7	97,7

**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



2018 yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 2765,2 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 % ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida o`tgan yilga nisbatan o`rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko`rsatkichlari Guliston shahri (10092,9 ming so`m), Yangiyer shahri (4135,3 ming so`m) va Sardoba tumanida (3027,8 ming so`m) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Xovos tumanida (867,7 ming.so`m), Boyovut tumanı (924,7 ming.so`m) va Sayxunobod tumanida (1227,8 ming so`m) qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2765,5</b>	<b>101,8</b>
Guliston sh.	10092,9	113,7
Shirin sh	1482,4	88,5
Yangiyer sh	4135,3	96,4
tumanlar:		
Boyovut	924,7	92,8
Guliston	2759,7	95,2
Mirzaobod	2266,2	91,0
Oqoltin	1737,0	91,3
Sardoba	3027,8	98,1
Sayxunobod	1227,8	105,6
Sirdaryo	2058,1	98,4
Xovos	867,7	92,1


Jumladan, 2018 yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 %ni tashkil etib, 47,2 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik tadbirdorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

## SIRDARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI (2018 yil yanvar-dekabr)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1144,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 3,4 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g'ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko`ra, 635,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,5 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 55,5 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yangiyer shahrida (100,0 %), Shirin shahrida (98,9 %) va Sirdaryo tumanida ( 85,9 %) yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarning  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko`ra, 509,1 mld. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,5 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 44,5 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko`rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Sardoba tumanida (98,8 %), Boyovut tumanida (95,5 %) va Sirdaryo tumanida (94,6 %) yuqori bo`lgan.

### **Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	1144,6	106,5	509,1	105,2	635,6	107,5
Guliston sh.	412,4	107,6	102,3	81,6	310,0	120,2
Shirin sh	0,4	109,0			0,4	107,7
Yangiyer sh	17,5	85,4			17,5	104,5
tumanlar:						
Boyovut	106,4	96,4	101,7	96,0	4,7	105,0
Guliston	29,3	140,6	22,3	151,0	7,0	115,3
Mirzaobod	67,7	110,6	18,1	168,5	49,6	98,2
Oqoltin	27,6	125,8	24,2	128,2	3,4	110,9
Sardoba	80,4	86,5	79,4	86,3	1,0	105,7
Sayxunobod	120,3	121,1	93,3	123,8	27,0	112,7
Sirdaryo	247,8	99,3	34,9	142,6	213,0	94,3
Xovos	34,8	234,8	32,9	258,1	2,0	91,1

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
ulishi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (36,0 %), Sirdaryo tumanida (21,6 %), Sayxunobod tumanida (10,5 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.:71-230-86-34